

BUGUN TUMANDA «SALOMATLIK SAYILLARI» SOG'LOMLASHTIRISH TADBIRI BO'LIB O'TDI

Sog'liqni saqlash vazirligining tashabbusi bilan shu kunlarda yurtimizning barcha hududlarida "Salomatlik sayillari" tadbirlari aholi o'rtasida tashkil etilmoqda.

7 aprel — Butunjahon salomatlik kuni munosabati bilan o'tkazilayotgan aksiya doirasida Toshloq tumani aholisi ham respublikadan kelgan malakali mutaxassislar hamda mahalliy shifokorlar tomonidan chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

"Salomatlik sayli"da ko'plab aholi vakillari kun davomida UZI, EKG tekshiruvlari, laborator tahlillar, diagnostik tekshiruvlar, davolash-profilaktika tadbirlarida qatnashib, o'z salomatliklarini nazoratdan o'tkazdilar. Malakali shifokorlar tomonidan har bir fuqaroga batafsil tavsiyalar berildi.

2023-04-11 13:57:07